

## Erkin Vohidovning “Inson” Qasidasidagi Leksik-Fonetik Vositalar

*Guljahon Ahrorova*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida qo‘llanilgan leksik va fonetik vositalar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu vositalarning badiiy she‘r qurilishi va mazmuniga yuklagan uslubiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim, fonetik vositalar, assonans, alliteratsiya, geminatsiya, uslubiy bo‘yoq dorlik.

Til va adabiyot ajralmas tushunchalardir, sababi tilning asosiy komponenti bo‘lmish so‘z adabiy asarlarda eng muhim qurilish materiali vazifasini o‘taydi. Kitobxon she‘r, hikoya, qasida, doston, roman, qissa kabi badiiy adabiyot namunalarini o‘qir ekan, ifodalanayotgan fikrlar teranligidan, so‘zlardagi emotsiyonallik, ta’sirchanlik, o‘zaro ohangdoshlik va jarangdorlikdan hayratda qoladi hamda unda ifodalanayotgan asl mazmunni tushunib yetadi. Ana shunday asarning tub mohiyatini ochib beruvchi, ta’sirchanlikni oshiruvchi va yozuvchini ijoddan ko‘zlagan maqsadiga yetishtiruvchi vosita tilimizdagи fonetik, leksik, grammatik birliklar hisoblanadi. Fonetik birliklar nutq qurilishida shakllantiruvchi va tanituvchi vazifani bajaradi. Masalan “paxta” so‘zining tarkib topishida 5 ta tovush (p, a, x, t, a), 2 ta bo‘g‘in (pax-ta) va bitta so‘z urg‘usi (paxta) qurilish materiali vazifasini o‘tagan va bu vositalar tanituvchi funksiyasini ham bajaradi. Inson “paxta” so‘zini eshitganda yoki o‘qiganda uning xotirasiga g‘o‘za o‘simligining oq tolali yumshoq materiali keladi. Bundan tashqari ohang, melodika, pauza, urg‘u kabi vositalar ham borki, ular talaffuz jarayonida o‘zini namoyon qiladi. Badiiy asarda qo‘llangan leksik vositalar ma’no ko‘chishlari, shakldosh so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar hamda o‘zaro zid ma’noli so‘zlar uslubiylikni va emotsiyal-ekspressivlikni oshiradi. Quyida Erkin Vohidovning “Inson” qasidasi misolida fonetik-leksik vositalar tahlili ko‘rib o‘tiladi. Ijodkor bu vositalardan qasidaning har bir o‘rnida unumli foydalangan.

Jumladan, she‘rning dastlabki misralariga yuzlanamiz:

Sobit-ul sayyorda inson o‘zing , inson o‘zing ,

Mulki olam ichra bir xoqon o‘zing , sulton o‘zing [1].

“Badiiy nutqning ohangdorligini va ta’sirchanligini oshirishda alliteratsiyaning o‘rni beqiyosdir. She‘riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishiga alliteratsiya deyiladi” [2]. Bu baytdagi “sobit”, “sayyora”, “sulton” so‘zlarining bir xil “s” tovushi bilan bosqlanganligi o‘zaro ohangdoshlikni, ya’ni alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi geminatsiya hodisasi deyiladi. “Sayyora” so‘zi tarkibida kelgan ikkala “y” undoshi xuddi shunday geminatsiya hodisasini yuzaga keltirgan . “Xoqon”, “sulton” kabi o‘zaro sinonim so‘zlarning qo‘llanishi esa insonning qanchalar yuksakligini yanada yorqinroq aks ettirishga xizmat qilgan va ifodalilikni oshirgan.

Sobit o‘z ma’vosida, sayyor fazo dunyosida,

Koinot sahosida karvon o‘zing, sarbon o‘zing.

Misralardagi ma’vo, dunyo, sahro hamda karvon, sarbon so‘zlar o‘zaro ohangdoshlikni yuzaga keltiradi va ulardagi urg‘uning oxirgi bo‘g‘inga tushayotganligi, talaffuz jarayonida “o” unlisining

<sup>1</sup> JDPU o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi II bosqich magistranti



cho‘ziqroq talaffuz etilishi o‘zgacha jozibadorlik kasb etgan. Baytda leksik vositalardan ham mohirona foydalanilgan. Masalan, sobit – bir maslakda mustahkam turadigan va sayyora – o‘zgaruvchi, kezib yuruvchi so‘zlari hamda karvon bilan sarbon ifodalari o‘zaro antonim, ya’ni zid ma’nolidir. “Koinot sahrosi” ifodasida esa metafora usuli bilan ma’no ko‘chishi kuzatilgan .

Shams-dil taftingdadur, sayyoralar kaftingdadur,

Keng jahon zabtingdadur, bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing.

Ushbu bandda misralardagi ohangdoshlikni “taftingdadur”, “kaftingdadur”, “zabtingdadur” so‘zlari hosil qiladi va bu so‘zlar oxirida “-dir” bog‘lamasining “-dur” shaklida ishlatalishi badiiylikni namoyon qiladi. Quyosh so‘zining “shams” shaklidan foydalanilganligi uslubiy bo‘yoqdorlikni ta’minkaydi. Qolaversa, “shams” va “sayyora” so‘zlari bir mazmuniy uyaga mansub bo‘lib, misrada tanosub san’atini yuzaga chiqargan. Keyingi baytda yana alliteratsiya ko‘zga tashlanadi:

Bu yorug‘ dunyo nadur, vayronadur, koshonadur,

Senga mehmonxonadur , mehmon o‘zing, mezbon o‘zing .

“Mehmon”, “mezbon”, “mehmonxona” so‘zlarida takrorlangan “m” tovushi alliteratsiyani yuzaga chiqargan. “Nadur”, “vayronadur”, “koshonadur” so‘zlari o‘zaro ohangdosh holatda kelgan. “Nimadir” olmoshining “nadur” formasidan foydalanilganligi badiiylikni oshirgan. Vayrona-koshona, mehmon-mezbon so‘zlari o‘zaro zidlik munosabatida bo‘lib, dunyoning salbiy va ijobjiy jihatlari, uning o‘tkinchiligi haqida oson tasavvur uyg‘otishga imkon yaratadi.

Bunda oq birla qaro, zulmat, ziyo, shoh-gado,

Jang qilurlar doimo , ul yon o‘zing, bul yon o‘zing .

Ushbu bandda ham ko‘plab fonetik va leksik vositalar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “birla”, “ul”, “bul”, “qaro” so‘zlari aynan badiiy uslubga xos tarzda qo‘llangan. “Oq-qaro”, “zulmat-ziyo”, “shoh va gado” so‘zlari o‘zaro antonim bo‘lish bilan birga ohangdoshlikni ham yuzaga keltirgan. Ikkinchisi misradagi “doim” so‘zi talaffuzda “doyim” tarzida aytildi va bu epenteza, ya’ni “So‘z o‘rtasida tovush orttirilishi”ni hosil qiladi [3].

Goh adolat bog‘ida , piri adovat gohida,

O‘z diling dargohida shayton o‘zing, g‘ilmon o‘zing.

Baytdagi “bog‘ida”, “gohida”, “dargohida”, “adolat”, “adovat”, “shayton”, “g‘ilmon” so‘zlari o‘zaro ohangdoshdir. Misralarda salbiy bo‘yoqdor leksemalar “adovat”, “shayton” va ijobjiy bo‘yoqdor leksemalar “adolat”, “g‘ilmon” o‘zaro zidlikni ifoda etib , baytda ifodalangan ma’noning izchilligini ta’minlagan .

Sen balo, ham mubtalo, xayr ila kin , rost-u riyo,

Fitnagar olam aro fatton o‘zing, qurban o‘zing.

Bu baytda ham yuqoridagilari kabi “balo”, “mubtalo”, “riyo”, “aro”, “qurban”, “fatton” so‘zlari o‘zaro ohangdoshlikni ifoda etgan va musiqiylikni yuzaga keltirgan. “Fatton” so‘zidagi qavatlanib kelgan “t” undoshlari geminatsiyani hosil qilgan. “Fitnagar olam” birikmasida esa insonga xos bo‘lgan xususiyatning olamga ko‘chirilish orqali metaforaning belgi o‘xshashligi namoyon bo‘ladi. “Xayr-kin” , “rost-riyo” so‘zlaridan antonim sifatida foydalanilgan.

Xormisan yo gulmisan, tojdormisan yo qulmisan ,

Cho‘g‘zmisan , bulbulmisan , nodon o‘zing, xushxon o‘zing.

Baytda “xor” va “gul”, “tojdar” va “qul” , “nodon” va “xushxon” bilan birgalikda yozuvchi qush nomlarini ham “cho‘g‘z” va “bulbul”ni o‘zaro antonim shaklda qo‘llagan.

Bu hayot o‘rmon ekan , jon borki, qasdijon ekan,

Bunda qatl oson ekan, sirtlon o‘zing, jayron o‘zing.



Shoir “o‘rmon”, “sirtlon”, “jayron” kabi o‘zaro uyadosh so‘zlardan foydalanib, kitobxon tasavvurida ajoyib manzarani chizadi. Misralardagi “o‘rmon”, “jon”, “sirtlon”, “jayron” so‘zlari o‘zaro ohangdoshlik va mantiqiy izchillikni ta‘minlaydi. “Sirtlon” va “jayron” so‘zlari orasida esa zidlik, ya’ni mazmuniy tazod yuzaga kelgan. Birinchi misradagi “qasdi” so‘zining “qasti” tarzida talaffuz etilishi to‘liqsiz dissimilyatsiyani vujudga keltirgan. Ikkinci misradagi “bunda” so‘zida esa “bu” olmoshiga “da” o‘rin-payt kelishigi qo‘sishmchasining qo‘shilishi natijasida tovush ortish hodisasi sodir bo‘lgan. Keyingi baytda adib hayotni “ummonga”, “-dek” o‘xshatish vositasi orqali insonni “qatra”ga qiyos etadi:

Bu hayot ummon ekan, ummon abad gardon ekan,

Qatradek sarson ekan, sarson o‘zing, gardon o‘zing.

Birinchi misrdagi “ummon” so‘zida “m” undoshi orqali geminatsiya vujudga kelgan. “Ummon”, “gardon”, “sarson” so‘zlari bitta bandning o‘zida ikki martadan, turli o‘rinlarda mahorat bilan qo‘llanganligi ajoyib so‘z o‘yinini yuzaga chiqargan.

Mash’al fikrat – sening, ham changali vahshat sening,

G‘ayrat-u g‘aflat sening, javlon o‘zing, uryon o‘zing.

Ushbu bandda ham “fikrat”, “vahshat”, “g‘ayrat”, “g‘aflat”, “javlon”, “uryon” so‘zlari o‘zaro ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari “g‘ayrat-g‘aflat”, “fikrat-vahshat”, “javlon-uryon” so‘zlari o‘zaro leksik antonim hamdir. “Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu orqali hodisa va holatlardagi qaramaqarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta‘minlaydi” [4]. Yuqoridagi antonimlikda xuddi shu holatning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Baytdagi “vahshat”, “g‘aflat”, “uryon” kabi salbiy bo‘yoq dor leksemalar asar ta’sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilgan. Misralarda takror holda kelgan “sening” so‘zida degeminatsiya, ya’ni so‘z tarkibidagi geminatsiyaning yo‘qolishi – sen +ning - kuzatilgan.

Zarrani ijod etib, dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib, hayron o‘zing, hayron o‘zing.

Bu baytda “ijod”, “bunyod”, “yod” so‘zlari o‘zaro ohangdosh bo‘lib, ifodalanayotgan fikrning tinglovchiga yoqimliroq tarzda eshitilishini ta‘minlaydi.

Onayizoring – zamin, tanho yo‘g‘-u boring – zamin,

Xasta bemoring – zamin, o‘g‘lon o‘zing, darmon o‘zing.

Ushbu bandda ham shoir Vatanni onaga qiyoslar ekan, tilimizdagи turli vositalardan unumli foydalanadi. Masalan, o‘zaro sinonim bo‘lgan “xasta” va “bemor” so‘zlarining birvarakayiga ketma-ket qo‘llanishi hamda “xasta” so‘zining “bemor” so‘ziga aniqlovchi sifatida kelishi ko‘zlanayotgan ma’noni yanada bo‘rttiribroq hamda chuqurroq ifoda etadi.

Kelding olamga , demak, etmas uni so‘rmak, yemak,

Yerni etmog‘ing kerak bo‘ston o‘zing , rizvon o‘zing.

Shoir insonning olamga kelishdan maqsadini tushuntirar ekan, fikrlarini jozibaliroq ifoda etish uchun “demak”, “so‘rmak”, “yemak”, “kerak” so‘zlarini ohangdosh tarzda baytga kiritib o‘tadi. Dastlab “bo‘ston” leksemasidan, so‘ngra ma’noni kuchaytirish uchun “rizvon” leksemasidan foydalanadi. Asar yakunida ham ko‘plab fonetik, leksik vositalarga duch kelamiz.

So‘zga ham poyon bo‘lur, yozsam yana devon bo‘lur,

Rustami doston bo‘lur, doston o‘zing, devon o‘zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun yozding dilingdan bir tugun,

Sen kim-u ne dahri dun, biyron o‘zing, nodon o‘zing.



Qasidaning so‘nggi baytida ham so‘zlar o‘zaro ohangdoshlikni yuzaga chiqargan. Misralardagi “bukun”, “tugun”, “biyron”, “nodon” so‘zlari xuddi shunday vazifani bajargan. Ulardagi urg‘uning ham bir xil “u” va “o” unlilariga tushishi she’rga musiqiyilik va ifodaviylik baxsh etadi. Ikkinchisi misradagi “biyron” va “nodon” so‘zlari o‘zaro antonim bo‘lib, baytdan ko‘zlangan fikr o‘zagini ifoda etishda asosiy vazifani bajargan.

Xulosa qilib aytganda, fonetik-leksik vositalar asar qurilishida ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan mukammallikni ta’minlagan. Fonetik vositalar qasidadagi ta’sirchanlik va musiqiyilikni shakkantirsar, leksik vositalar fikrlarni realroq va yanada aniqroq ifoda etishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, asarni og‘zaki bayon etish chog‘ida ohang, pauza, intonatsiya kabi fonetik vositalar to‘g‘ri ifoda etilsa, qasida yanada jozibaliroq bo‘ladi va qulooqqa eshitilayotganda yoqimlilik kasb etadi. Chunki aynan yuqorida keltirilgan vositalar asarning tub mohiyatini, ijodkorning maqsadini va gaplardagi darak, so‘roq, buyruq, emotsiyonallik singari mazmun jihatlarini aks ettirib beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Vohidov E. Kuy avjida uzilmasin tor. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 129–132.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent – 2008.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”-T: “O‘qituvchi” nashriyoti 1995. – B. 5–16.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – B. 15-67-70.-144

